




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE CONCEPT OF THE WELFARE STATE AND ITS ROLE IN SOCIETY

Mukhabbat Davletova

PhD Candidate

*Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: welfare state, justice, Lorenz von Stein, social equality, social protection, social stability, welfare state models, globalization, technological development, demographic changes.

Received: 04.10.24

Accepted: 06.10.24

Published: 08.10.24

Abstract: The welfare state is an essential part of the modern system of governance, aimed at creating a stable and just society by providing social protection and economic support to various layers of the population. This concept is widely applied in many countries. The main focus is on state policies that protect citizens in the social sphere and improve their living standards. This article provides a comprehensive analysis of the concept of the welfare state, its formation, development, and role in society.

IJTIMOIY DAVLAT TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATDAGI ROLI

Muxabbat Davletova

PhD doktoranti

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy davlat, adalot, Lorenz fon Shteyn, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy davlat modellari, globalizatsiya, texnologik rivojlanish, demografik o'zgarish.

Annotatsiya: Ijtimoiy davlat zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining muhim qismi bo'lib, aholining turli qatlamlariga ijtimoiy himoya va iqtisodiy yordam ko'rsatish orqali barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirishni maqsad qilgan davlat shaklidir. Bu konsepsiya ko'plab mamlakatlarda keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Asosiy e'tibor davlatning ijtimoiy sohada fuqarolarni himoya qilish va ularning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosatga qaratiladi. Ushbu maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, uning shakllanishi, rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni keng ko'lamda tahlil qilinadi.

ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА И ЕГО РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ

Мухаббат Давлетова

докторант PhD

Ташкентский Государственный Экономический Университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальное государство, справедливость, Лоренц фон Штейн, социальное равенство, социальная защита, социальная стабильность, модели социального государства, глобализация, технологическое развитие, демографические изменения.

Аннотация: Социальное государство является важной частью современной системы государственного управления, направленной на создание стабильного и справедливого общества через социальную защиту и экономическую поддержку различных слоев населения. Эта концепция широко применяется во многих странах. Основное внимание уделяется политике государства в области социальной защиты граждан и повышения их уровня жизни. В данной статье проводится всесторонний анализ понятия социального государства, его формирования, развития и роли в обществе.

KIRISH

Ijtimoiy davlat — bu davlat boshqaruv tizimining shakli bo‘lib, uning asosiy vazifasi fuqarolar uchun ijtimoiy himoya va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdir. Ijtimoiy davlat fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovonligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan. Bunday davlat turli ijtimoiy siyosatlar orqali zaif qatlamlarni himoya qiladi va iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi.

Asrlar davomida jamiyatlar o‘zining har bir taraqqiyot bosqichida ijtimoiy davlat boshqaruviga intilib keladi. Shu o‘zinda bizning mamlakatimiz ham o‘zining bosh ustuvor vazifasi sifatida “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini mustahkamlash deb biladi. Xususan, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib, “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak”, deya ta’kidladi [6].

Shu asnoda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida ham “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” ekanligi mustahkamlab qo‘yildi [7]. Chunki, “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat”

tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam.

ASOSIY QISM

Maqolada muhokama qilinadigan muammolarni tadqiq qilish uchun bir qator metodlardan foydalanildi. Xususan, deduktiv, induktiv, tarixiylik, analogik va komparativistik metodlardan foydalanildi.

Ijtimoiy davlat tushunchasi o‘z ildizlarini XIX asr davomida shakllangan ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yechimiga bo‘lgan ehtiyojdan oladi. Sanoat inqilobi davrida ijtimoiy tengsizlik va ishchi sinfining og‘ir turmush sharoitlari davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy tizimlarning zarurligini ko‘rsatdi. Shu davrda Evropa mamlakatlarida davlatning iqtisodiy hayotda ishtirokini kengaytirish va fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minalashga bo‘lgan talab kuchaydi. Buning natijasida ijtimoiy davlatning dastlabki shakllari yuzaga keldi.

Ijtimoiy davlatning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayonlarning ta’sirida kechgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoat inqilobi ijtimoiy muammolarni keskinlashtirdi. Ishchilar sinfi yomon turmush sharoitlar, uzoq ish soatlari va kam maosh bilan duch keldi. Natijada, fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga ehtiyoj sezildi va bu davlatning faol ishtirokini talab qildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Germaniya ijtimoiy siyosatda dastlabki peshqadamlardan bo‘ldi. Otto fon Bismarkning siyosati ijtimoiy sug‘urta tizimining yaratilishiga zamin bo‘ldi [1], bu esa ijtimoiy davlatning rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi. 1880-yillarda Germaniyada keksalik va kasallik holatida yordam ko‘rsatadigan ijtimoiy sug‘urta tizimlari joriy etildi. Bu davr ijtimoiy davlatni shakllantirish yo‘lida muhim o‘zgarishlarga olib keldi.

Yuqoridagilar ijtimoiy davlat tushunchasining amaliy jihatdan ifodasi bo’lsa, uning nazariy jihatdan yoritib berilishi ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Ilmiy adabiyotda ilk bor “Ijtimoiy davlat” – “The Welfare State” tushunchasi 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo’llaniladi. Lorens fon Shteynning ijtimoiy muammolarga bo‘lgan qiziqishi, 1840-yillarning boshlarida Parijdagi Yevropa kommunistik va sotsialistik fikr yetakchilari Etien Kabe va Lui Blan bilan bo‘lgan muloqotdan so‘ng boshlanadi. Fransiyadagi ilmiy safar natijasi sifatida u 1842 yilda “Zamonaviy Fransiyada sotsializm va kommunizm” nomli ilmiy tadqiqotlarini nashr ettiradi, bu yosh tadqiqotchiga mashhurlik keltirdi va o‘sha davrda ko‘plab olimlarning qiziqishini oshirdi.

1850 yilda Lorens fon Shteynning asosiy asarlaridan biri – “1789 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan Fransiyadagi ijtimoiy harakat tarixi” asarini nashr ettirdi. Nashr keng kirish qismi bilan boshlanadi, unda hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lgan siyosiy nazariya masalalari: jamiyat va davlat tushunchalari, ularning o‘zaro munosabati, erkinlik tushunchasi, ijtimoiy harakatlar, islohotlar va inqilob kabi qator boshqa masalalar ham muhokama qilinadi.

Bundan tashqari ijtimoiy davlat tushunchasi haqidagi nazariyalar keyingi davrlarda Richard Titmuss [8] va Gosta Esping-Andersen [5] tomonidan nazariy jihatdan rivojlantiriladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiga nazar tashlansa bu tushuncha ajdodlarimiz asarlarida “farovon davlat”, “fozil shahar” kabi nomlar bilan ancha qadimiyroqqa borib taqaladi. Jumladan, Abu Nasr Farobi o’zining “Fozil odamlar shahri asarida” ijtimoiy adolat ta’moyillari asosida boshqariladigan “fozillar shahri”ga alohida to’xtalib o’tadi. Shuningdek, Ibn Sino, Al-Beruniy, Alisher Navoiy, Ogahiy kabi mutafakkirlar asarlarida ham “farovon davlat” tushunchasi tarannum etiladi [9].

XX asrning birinchi yarmida, ayniqsa, Ikkinci jahon urushidan keyin, ijtimoiy davlatning rivojlanishi tezlashdi. Jahon urushidan keyingi davrda ko‘plab davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy yangilanish siyosatini qabul qilib, ijtimoiy davlat tizimini joriy etdilar. 1942-yilda Buyuk Britaniyada Beverij hisobotida [11] ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Ushbu hujjat Buyuk Britaniyada ijtimoiy davlatning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Ikkinci jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining yangi bosqichi - uning konstitutsiyaviy prinsipga aylanishi, davlatning alohida turi sifatida talqin qilinishi boshlandi. Ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy prinsip sifatida Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, keyinroq esa XX asrni 70-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarida mustahkamlangan [2].

XX asrning ikkinchi yarmida ko‘plab davlatlar ijtimoiy davlat siyosatini kuchaytirdi. Yevropada, ayniqsa, G‘arbiy Yevropada davlatlar keng ko‘lamdagiligi ijtimoiy dasturlarni joriy qilishdi, jumladan, bepul sog‘liqni saqlash, pensiya tizimlari va boshqa ijtimoiy xizmatlar taqdim etila boshlandi. Bu davrda davlatlarning ijtimoiy sohadagi ishtiroki kengaydi va ular fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga katta e’tibor qaratdilar. 1970-1980 yillarda neoliberal iqtisodiy siyosatning keng tarqalishi ijtimoiy davlatni qisqartirish va xususiy sektorning roli oshirishga urinishlarga olib keldi, ammo ko‘plab davlatlarda ijtimoiy davlat muhim rol o‘ynashda davom etdi.

Bugungi kunda ijtimoiy davlat zamонавија jamiatning ajralmas qismi hisobланади. Bu tushuncha ijtimoiy adolat, barqarorlik va farovonlikni ta’minalashda davlatning bevosita ishtirokini belgilaydi. Ijtimoiy davlat jamiatdagisi zaif qatlamlarni himoya qilish, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va jamiatning umumiyligi farovonligini oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshiradi.

Ijtimoiy davlatning asosiy belgilari uning jamiatda o‘ynaydigan rolini va vazifalarini aniqlab beradi. Ular quyidagi jihatlarda ifodalananadi:

1. Ijtimoiy adolat va tenglik. Ijtimoiy davlatning bosh maqsadi – jamiatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minalashdir. Bu davlat barcha fuqarolarga bir xil imkoniyatlar yaratib berish va

ularning asosiy huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni kamaytirish uchun davlat turli ko'mak va yordam dasturlarini amalga oshiradi.

2. Ijtimoiy himoya. Ijtimoiy davlat fuqarolarni ijtimoiy xavfsizlik bilan ta'minlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Bu sug'urta tizimlari, pensiya dasturlari, tibbiy yordam va boshqa ijtimoiy himoya shakllari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, fuqarolarni ishsizlik, kasallik, nogironlik va boshqa turdag'i ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan dasturlar muhim o'rinni tutadi. Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Rodionovaning fikricha ham "ijtimoiy davlat keng va samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat bo'lib, u inson va fuqaro huquqlarining realligida, qulay va samarali tizimlar mavjudligida namoyon bo'lishi kerak. Ta'lism, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlash bularning hammasi bir tizimning alohida elementlari hisoblanadi" [12].

3. Ijtimoiy xizmatlar. Davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar ta'lism, sog'liqni saqlash, uy-joy va boshqa asosiy ehtiyojlarni qamrab oladi. Ijtimoiy davlat bu xizmatlarni bepul yoki imtiyozli shartlarda taqdim etadi, bu esa aholining barcha qatlamlari, jumladan, zaif guruhlar uchun ham ulardan foydalanish imkoniyatini beradi.

4. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Ijtimoiy davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham faol ishtirok etadi. Iqtisodiy tanglik va inqirozlar paytida davlat aholiga moddiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari orqali yordam beradi. Bu, o'z navbatida, aholining turmush darajasini saqlashga va iqtisodiy tanglikning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning turli shakllari mavjud bo'lib, ular davlat siyosati va boshqaruv tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Keng qabul qilingan tasniflardan biri 1990-yilda daniyalik olim Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan tasnifdir [10], unda ijtimoiy davlat uch asosiy modelga bo'linadi:

1. Liberal model. Liberal modelda davlatning ijtimoiy sohada ishtiroki minimal darajada bo'ladi. Bu model asosan Angliya, AQSh kabi davatlarda qo'llaniladi. Ijtimoiy yordam va xizmatlar asosan xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladi, va davlat faqat zaif aholini qo'llab-quvvatlash bilan cheklanadi. Bozor munosabatlariga katta e'tibor qaratilib, fuqarolarning o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatiga urg'u beriladi.

2. Korporativ model. Korporativ modelda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik ko'proq ahamiyat kasb etadi. Bu modelda davlat ijtimoiy sug'urta tizimlarini va korporativ strukturalarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ko'plab xizmatlar va yordamlar professional tashkilotlar va kasaba uyushmalari orqali amalga oshiriladi. Bunday model ko'pincha Germaniya va Avstriyada qo'llaniladi.

3. Skandinavcha model. Skandinavcha modelda davlatning ijtimoiy sohada ishtiroki maksimal darajada bo'ladi. Bu modelda davlat ta'lism, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy

xizmatlarni keng ko‘lamda bepul taqdim etadi. Fuqarolar o‘rtasida yuqori darajadagi tenglikni ta‘minlashga qaratilgan. Skandinavcha model ko‘proq Skandinaviya davlatlarida, jumladan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada keng tarqalgan.

Ijtimoiy davlat iqtisodiy barqarorlikka sezilarli hissa qo‘shadi. Iqtisodiy inqirozlar paytida davlatning iqtisodiy siyosatlari aholining kam ta‘minlangan qatamlariga moddiy yordam ko‘rsatish orqali inqirozning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy himoya tizimlari iqtisodiy faollikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri – ijtimoiyadolatni ta‘minlashdir. Ijtimoiy davlatning ijtimoiy siyosati barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish va ularning asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va barcha qatamlarning farovonligini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy davlat fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jumladan, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy himoya tizimlari orqali fuqarolar huquqlarini ta‘minlaydi.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy davlat bir qator dolzarb muammolar bilan duch kelmoqda. Bu muammolar globalizatsiya, texnologik rivojlanish, demografik o‘zgarishlar va iqtisodiy inqirozlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, kelajakda ijtimoiy davlatni modernizatsiya qilish va yangilash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Globalizatsiya va texnologik rivojlanish davlatlar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, ijtimoiy davlatning ba’zi an'anaviy vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Xususan, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy sug‘urta tizimlarini modernizatsiya qilish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Ko‘plab rivojlangan davlatlarda demografik o‘zgarishlar, ya’ni aholi keksayishi va tug‘ilish darajasining pasayishi ijtimoiy davlat tizimlari, xususan, pensiya va sog‘liqni saqlash tizimlariga katta bosim o‘tkazmoqda. Shu sababli, kelajakda ushbu tizimlarni modernizatsiya qilish va ularni barqaror qilish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Ijtimoiy davlat zamonaviy jamiyatning asosiy institutlaridan biri bo‘lib, uning roli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiyadolatni oshirish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdir. Tarixiy rivojlanish davomida ijtimoiy davlat ko‘plab mamlakatlarda keng ko‘lamda rivojlandi va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining muhim qismiga aylandi. Bugungi kunda ijtimoiy davlat zamonaviy muammolarga javob berishda davom etmoqda va uning kelajakdagi rivojlanishi global tendensiyalarga mos ravishda o‘zgarishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bismark, OGesetz zur Krankenversicherung der Arbeiter. German Empire Legislation, 1881.
2. Ernazarov D. Ilmiy adabiyotlarda “Ijtimoiy davlat” tushunchasi va uning xususiyatlari // Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Afzalzoda books nashriyoti, 2023. – B. 292
3. Espin Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Cambridge: Polity, 1990. – 264 p.
4. Esping-Andersen, G. Why We Need a New Welfare State. – Oxford: University Press, 2002.
5. G Esping-Andersen The Three Worlds of Welfare Capitalism, Brighton: Polity, 1990.
6. Joldasova Sh. O‘zbekiston — ijtimoiy davlat. https://www.uzbekistan.org.ua/uz/uzbekistan-uz/107-yangiliklar_6256.html
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 3.
8. R. Titmuss Social policy: an introduction. – London: Allen and Unwin, 1974.
9. Shavkatov, S. S. (2023). Muhammad Rizo Ogahiyining “Ta’viz ul-oshiqin” asarida falsafiy g‘oyalar: insonning tabiat, axloqi va jamiyatdagi o‘rni. - *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 89-99
10. Shavkatov S. S. (2024). Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida “adolat” kategoriyasining germenevtik tahlili. XXI asr: fan va ta’lim masalalari, 1, 29-39.
11. Sir William Beveridge. The Beveridge report. - New Delhi: Indian Institute of Public Administration, 1942. – 303 p.
12. Родионова О.В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства. LEX RUSSICA. № 1 (Том XCVIII). 2015. С. 28-41.
13. Saifnazarov, I. (2023). Yangi O'zbekiston: inson qadri ulug'langan yurt. Tashkent:" Ilm-Ziyo-Zakovat" MChJ. -209.
14. Саифназаров, И., & Умаржонов, С. (2022). Янги Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 414-424.